

TEMIR YO‘L TRANSPORTI TIZIMINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Omarov Mamanbiy Allabergenovich

Toshkent davlat transport universiteti
izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada temir yo‘l transporti tizimingning raqobatbardoshlikni ta‘minlovchi asosiy yo‘nalishlar, temir yo‘l transport tizimi samarali rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan asosiy muammolar, transport turlari o‘rtasidagi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmi elementlari va yuk tashish sohasida temir yo‘l transporti raqobatbardoshligini oshirish yo‘nalishlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: raqobatbardoshlik, samaradorligini baholash omillari, yuklarni yetkazib berish, vazifalar iyerarxiyasi, transport kompleksi, temir yo‘l transporti raqobatbardoshligi.

Аннотация

В статье предложены основные направления обеспечения конкурентоспособности железнодорожного транспорта, основные проблемы, препятствующие эффективному развитию железнодорожного транспорта, элементы экономического механизма повышения конкурентоспособности видов транспорта, направления повышения конкурентоспособности железнодорожного транспорта в сфере грузовых перевозок.

Ключевые слова: конкурентоспособность, факторы оценки эффективности, доставка грузов, иерархия задач, транспортный комплекс, конкурентоспособность железнодорожного транспорта.

Abstract

This article proposes the main directions of ensuring the competitiveness of the railway transport system, the main problems that hinder the effective development of the railway transport system, the elements of the economic mechanism for increasing the competitiveness of transport modes, and the directions for increasing the competitiveness of railway transport in the field of freight transportation.

Keywords: competitiveness, efficiency assessment factors, cargo delivery, hierarchy of tasks, transport complex, railway transport competitiveness.

KIRISH

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning barqaror rivojlanishi asosan transport faoliyati bilan belgilanadi. Dunyoda transport marshrutlari uzunligini 50 mln. kilometrdan ortiq darajada barqarorlashtirish qayd etilgan. Jahon bankining ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda “xalqaro transport bozori 2,2 trillionga teng baholanmoqda (YAIMni 6,8%)”. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida transportni YAIMda ulushi 4 — 9 foizni, aholi bandligida 3-7 foizni tashkil etadi [1]. Bir tomondan, transport tizimi milliy

iqtisodiyotning rivojlanish darajasini, ikkinchi tomondan mamlakatning xavfsizlik darajasini aks ettiradi.

Jahon amaliyotida transport sohasini iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq bir qator muammolar, jumladan, yagona transport faoliyatini yanada samarali rivojlantirish masalalariga majmuaviy yondashish, multimodal va intermodal texnologiyalarini qo'llash asosida materiallar harakatini tezlashtirish, yetkazib berishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda transport-logistika va tranzit salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlaydigan iqtisodiy yondashuvlar hamda temir yo'l transportini iqtisodiy rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, avtomatlashtirish va raqamli platformalarni joriy etish orqali boshqaruv tizimlarini samarali qilib tashkil etish, temir yo'l transportining raqobatbardoshligini oshirish uchun uning xalqaro transport koridorlari bilan integratsiyasini ta'minlash, yuk tashish xizmatlarining narxlarini optimallashtirish, ekologik samaradorlikni oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, temir yo'l transportining boshqa transport turlari bilan integratsiyasini yaxshilash, texnologik innovatsiyalar va raqamlashtirish, yuk tashish xizmatlari uchun mijozlar bilan o'zaro aloqalarni yaxshilash masalalari bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida transport kommunikatsiyalarini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham "transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish, transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan [2]. bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Mahsulotlarimizni ichki va tashqi bozorlarga yetkazish, ularning tannarxini tushirish uchun transport-logistika sohasini rivojlantirishimiz zarur" [3] deb ta'kidladilar. Bu o'z navbatida mamlakat transport-tranzit salohiyatidan va zamonaviy yetkazib berish texnologiyalaridan samarali foydalanishni hamda temir yo'l transport tizimini samarali rivojlantirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishning maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari bir qator mahalliy va xorijlik olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Iqtisodchi olim R Xalturinning fikriga ko'ra transport kompleksining quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi: uning elementlari yagona tizim sifatida faoliyat ko'rsatadi; transport infratuzilmasi mintaqaviy tizimning boshqa tarkibiy qismlari bilan o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi [4].

Yu.N.Golskaya o'z tadqiqotida transport tizimini rivojlantirishning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi: uning elementlari yagona tizim sifatida faoliyat

ko'rsatadi; temir yo'l transport tizimini mintaqaviy tizimning boshqa tarkibiy qismlari bilan o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Demak, temir yo'l transporti hudud bilan qat'iy tarzda bog'lanmaganligi bois, harakatlanuvchi tarkib uning elementi hisoblanmaydi [5].

I.A.Semina va V.A.Kustovlarning fikricha, transport infratuzilmasining hududiy tizimlardagi quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatadilar. Birinchidan, transport – bu hududiy xususiyatlar indikatori va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sifatining asosiy tarkibiy qismi. Ikkinchidan, transport aloqalar taqsimlovchi va muvofiqlashtiruvchi hisoblanadi, natijada, operatsion makon cheklovchi, boshqacha aytganda, “hududlarni tutashtiruvchi”, ya'ni “transport xabni hosil qiluvchi” kabi vazifalarni keltirib o'tgan [6].

A.B.Maksimov o'zining ilmiy ishlarida transport infratuzilmasini shakllantirishning quyidagi asosiy funksiyalarini ko'rsatib beradi:

- iqtisodiyot subyektlarining transport obyektlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish;
- mamlakat transport tarmog'ini shakllantirish;
- turli transport turlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlash;
- mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini yuksaltirish [7].

D. Bauersoksning fikricha, temir yo'l transporti faoliyatini rivojlantirishda an'anaviy usullarga nisbatan yuk tashuvlarini tashkil etishning afzalligi va iqtisodiy samaradorligi masalalarini kiritgan holda multimodal va intermodal yuk tashuvlarini tashkil etish muammolariga alohida e'tibor qaratgan. Shu bilan birga muallif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalari o'z ichiga olgan transport tizimini alohida qayd etadi [8].

Mamlakatimiz olimlaridan G'.Samadov, A.Zoxidov, A.Gulamov va M.Ravshanovlarning fikricha “transport tizimi – bu yuk va yo'lovchilarni o'z manziliga yetkazish jarayonida o'zaro aloqasi bo'lgan transport turari va infratuzilmalari majmuasi, ya'ni o'zaro bog'liq bo'lgan transport sektorlari, mehnat resurslari hamda mamlakat iqtisodiyotini samarali boshqarish maqsadida transportning barcha turlarini boshqaruv tizimi tushuniladi” [9].

METODOLOGIYA

Temir yo'l transport tizimining raqobatbardoshligini oshirish muammolarini tahlil etish bilan shug'ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy bazasi sifatida xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobat umum-ijtimoiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy jarayonlar qatnashchilari o'rtasidagi yaxshiroq yashash sharoiti uchun bo'ladigan kurashni anglatadi. U kishilik jamiyati hayotining barcha jabhalariga xos bo'lib, kishilar o'rtasidagi o'z imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish, ayrim sohalarda o'z ustunliklarini namoyon

qilish, farovonroq hayot kechirish, jamoa o'rtasida obro'liroq bo'lish uchun bo'lgan kurashni aks ettiradi.

Har qanday bozor turi narx, talab, taklif, raqobat kabi elementlarga tayanadi. Raqobat iqtisodiy rivojlanishni tannarxni pasaytirish, sifatini oshirish, yangi ehtiyojlarni kashf etish va uni to'la qondirish yo'llari bilan rag'batlantiradi. Transport turlarining raqobatbardoshligi va samaradorligini baholashda quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval

Transport turlarining raqobatbardoshligi va samaradorligini baholash omillari¹


№	Omilar	Mazmun-mohiyati
1.	Xarajatlar	Yuk va yo'lovchi tashish xarajatlari past bo'lsa, transport turi raqobatbardosh hisoblanadi.
2.	Tezlik va vaqt	Yo'lovchilar va yuklar tez va o'z vaqtida manzilga yetkazilsa, bu transport turining samaradorligi yuqori ekanligini ko'rsatadi.
3.	Qulaylik va xavfsizlik	Yo'lovchilar uchun qulaylik, yuklar uchun xavfsizlik ta'minlangan bo'lsa, bu transport turi afzal ko'riladi.
4.	Infrastruktura va logistika	Keng infratuzilma tarmog'i va samarali logistika tizimiga ega transport turlari raqobatda ustun bo'ladi.
5.	Ekologik ta'sir	Kam uglerodli va atrof-muhitga kam ta'sir ko'rsatuvchi transport turlari ko'proq qadrlanadi.
6.	Ishonchlilik	Transport vositalari va xizmatlarining ishonchliligi ham samaradorlik va raqobatbardoshlik uchun muhimdir.

Yuklarni tashish faoliyatini tashkil etish uchun dastlab, o'z tarkibiga temir yo'l, havo va avtomobil transportlarini olgan yagona transport tizimlarining tavsiflarini bilib olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Har bir transport turi (avtomobil, temir yo'l, havo, dengiz, va kanallar) ushbu omillarning turlicha miqyosda egallashga qodir bo'lib, bu ularning umumiy samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.

Transport turlari o'rtasidagi raqobatbardoshligini oshirish keng qamrovli muammolar toifasiga kirganligi sababli unga funksional yondashuvni amalga oshirish talab etiladi. Shuning uchun ushbu yondashuvga tayangan holda transport turlari o'rtasidagi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmida quyidagilar keltirilishi maqsadga muvofiq (1-rasm).

Transport turlari o'rtasidagi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmi xizmat ko'rsatish, ortish-tushirish va samaradorligini oshirish xususiyatlarini hisobga olgan ko'p tarmoqli tizim hisoblanib, u o'zida o'zaro bog'liq bir qator bloklarni mujassam etadi. Transport turlari o'rtasidagi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmi muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali transport turi raqobatda ustunligini ta'minlaydi.

¹ O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.




1-rasm. Transport turlari oʻrtasidagi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmi elementlari¹

Maʼlumki, mamlakat hududidagi transport tizimi, temir yoʻl izlari xalqaro tizimning tarkibiy qismidir. Shu sababdan ham ushbu sohadagi xizmatlar bozorida raqobatbardosh korporatsiyalar faoliyati oʻta muhim sanaladi. Buning uchun zamon talablariga mos boʻlgan infratuzilmani tashkil etish, tranzit imkoniyatlarini kengaytirish, mavjud avtomobil yoʻllari, transport-texnologik tizimni tubdan isloh etish lozim boʻladi. Barcha turdagi transportlarning oʻziga xos xususiyatiga koʻra, biri-biri bilan bogʻliq taraflari inobatga olinishi hamisha muhim masalalardan biri hisoblangan. Shuning uchun transport turlari oʻrtasidagi raqobatbardoshligini oshirishning quyidagi toʻrt yoʻnalishdagi aniq vazifalarni belgilab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi (2-rasm).

Avvalo har bir transport turi faoliyatini rivojlantirish boʻyicha infratuzilmani yaxshilash va texnologiyalarni joriy etish lozim. Bunda inobatga olinadigan masalalar – har bir transport turining oʻziga xos xususiyatlari, mamlakat va xalqaro transport bozoridagi afzalliklari, nuqsonlari va imkoniyatlaridan iborat boʻladi.

¹ Oʻrganilgan manbalar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Bugungi kunda bevosita qonunchilikda ham yangi qonun hujjatlariga ehtiyoj mavjud. Jumladan, mamlakatimiz jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuv jarayonini boshidan kechirar ekan, iqtisodiy-moliyaviy hamda huquqiy va ma'muriy choralar ko'rish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.



2-rasm. Transport turlarining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish vazifalari¹

¹ Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan takomillashtirilgan.

Mamlakatda transport turlari va ular faoliyatini tartibga soluvchi zaruriy me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Mazkur qonun hujjatlari transport turlaridagi manfaatdor ishtirokchilarning o'zaro munosabat-larini tartibga soladi. Ayni chog'da biz tavsiya etayotgan "Integratsiyalashgan transport tizimi to'g'risida"gi qonun loyihasi transport turlarining yagona tizimga birlashuvi natijasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishda zaruriy me'yoriy hujjat bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi yo'nalishda ekologik standartlarni joriy qilish hamda trening va malaka oshirish shu bilan birgalikda, 3PL va 4PL darajadagi logistika kompaniyalar faoliyatini tashkil etish tavsiya etilmoqda. Buning natijasida, mamlakat transport turlari faoliyatining sinergetik samaradorligini ta'minlashga erishish imkoniyati yaratiladi.

To'rtinchi yo'nalishda xalqaro transport-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish taklif etilmoqda. Birinchi galda transport xarajatlarini hisoblashda yangi tarif tizimiga o'tish va "Cost+" yondashuvidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Tranzit tizimini takomillashtirishda YEI tajribasidan foydalanish taklifi berilmoqda.

Temir yo'l transport tizimi iqtisodiy samaradorligini yuqori darajada ushlab turish va uni yanada oshirish maqsadida tizimning moddiy-texnika bazasini takomillashtirish, ishchi kuchini tayyorlash, va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash orqali uning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilash zarur. Mazkur strategiya transport va logistika infratuzilmalarining innovatsion rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, shuningdek, ularning iqtisodiy manfaatdorligini oshirishga xizmat qiladi. Tarmoqning holati, uning iqtisodiy ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilish va rivojlanish tendensiyalarini prognozlash, samaradorlikni oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishda asosiy yo'nalishlardan biridir.

Shu sababli, 2017-2023-yillarda transport turlari bo'yicha yuk tashish hajmlari va ularning o'rnini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ma'lumotlar asosida tarmoqning dinamik rivojlanishi, kelajakdagi rivojlanish istiqbollari va mavjud muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan islohotlar aniqlanadi. Mazkur tahlillar temir yo'l tarmog'ining samaradorligini oshirishga xizmat qilib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda asosiy vosita bo'ladi. 2-jadvalda 2017-2023-yillarda transport turlari bo'yicha yuk tashish hajmlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

2017-yildan 2023-yilgacha yuk tashish hajmi 67,6 mln.tonnagacha oshgan bo'lib, 2023-yilda 73,7 mln.tonnaga yetgan. Bu tarmoqning umumiy yuk tashish hajmidagi ulushi kam bo'lsa-da, uning iqtisodiy samaradorligi va energiya sarfi bo'yicha afzalliklari mavjud. Temir yo'l transport tarmog'i mamlakatning asosiy tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashda va uzoq masofalarda yuk tashishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yuklarning yo'nalishlari uzoq masofada joylashgan hududlarga transportirovka qilinishida va xom ashyo mahsulotlarini tashishda yuqori samaradorlikka erishishda temir yo'l afzallik beradi.

Shuningdek, har bir transport turining o'ziga xos afzalliklari va cheklovlari mavjudligi sababli, raqobatda yuqori samaradorlikka erishish uchun har bir transport turidan oqilona foydalanish va ularning o'zaro muvofiqligini ta'minlash muhim

ahamiyatga ega.

2-jadval.

2017-2023-yillarda transport turlari bo'yicha yuk tashish¹.

Transport turlari	O'lchov birligi	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Temir yo'l	<i>mln. tonna</i>	67,6	68,4	70,1	70,6	72,0	73,64	73,7
Avtomobil	<i>mln. tonna</i>	1473,7	1102,2	1177,7	1238,2	1282,0	1261,7	1 322,0
Quvur	<i>mln. tonna</i>	62,2	72,4	71,9	57,9	66,2	63,5	60,0
Havo	<i>ming tonna</i>	26,5	13,1	10,4	5,3	9,1	10,1	9,3
Jami		1603	1243,0	1319,8	1366,7	1420,2	1398,9	1 455,7

Tashish tezligi transport turlari o'rtasidagi raqobatbardoshlikni baholashda juda muhim omil hisoblanadi. Yuklar yoki yo'lovchilarni yetkazib berish vaqti qisqarayotgani yoki uzoq davom etishining ta'siri juda katta, ayniqsa tezkor yetkazib berish talab qilinganda. Quyida transport turlari bo'yicha o'rtacha tashish tezligi keltirilgan (3-jadval).

3-jadval

2018-2023-yillarda transport turlarining o'rtacha tashish tezligi²

Yillar	Temir yo'l (km/soat)	Avtomobil (km/soat)	Quvur transporti (km/kun)	Havo transport (km/soat)
2018	30	40	100	600
2019	32	42	100	620
2020	33	44	100	630
2021	33	45	100	640
2022	34	52	100	650
2023	33	55	100	670

Temir yo'l transporti 2018-yildagi o'rtacha tashish tezligi 30 km/soatni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 33 km/soatga yetgan. Bu barqaror o'sish ko'rsatkichi bo'lsa-da, uning xalqaro standartlarga nisbatan past ekanligi ko'zga tashlanadi. Chunki xalqaro me'yorlarga ko'ra, yuk poyezdlari 50-80 km/soat tezlikda harakatlanishi nazarda tutiladi. O'zbekistondagi temir yo'l tizimi ushbu standartlardan taxminan 1.5-2.4-marta past bo'lib, bu yuklarni manzilga uzoq vaqtda yetkazib berishga olib keladi. Avtomobil transportining o'rtacha tashish tezligi 2018-yilda 40 km/soat bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 55 km/soatgacha oshgan. Bu o'zgarish avtomobil transportida infratuzilma va texnologiyalarning yaxshilanishidan dalolat beradi. Xalqaro standartlarga ko'ra, shaharlararo yo'llarda avtomobil transportining o'rtacha tezligi 60-80 km/soat bo'lishi kerak. O'zbekistondagi ko'rsatkich xalqaro me'yorlarga yaqinlashib qolgan, lekin hali ham 1.1-1.5-marta past.

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi

² Muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Transport turlari o'rtasida raqobatbardoshlikni baholashda asosiy omillardan biri xavfsizlik darajasi nazarda tutiladi. Har bir transport turi xavfsizlik bo'yicha turli darajadagi ko'rsatkichlarga ega. Yuklar yo'qotilish yoki shikastlanish xavfi yuqori bo'lgan transport turlari bozordagi raqobatda kamroq ustunlikka ega bo'ladi. Transport turlarining xavfsizlik darajasini baholash uchun besh balli shkaladan foydalanish xavf darajasini aniqroq baholash imkoniyatini beradi. Bunda 5 ball eng xavfsiz transport turini, 1 ball esa eng xavfli transport turini bildiradi. Quyida xavfsizlik darajasi 2018-2023-yillar uchun besh balli shkalaga asosan tuzilgan (4-jadval).

4-jadval

Transport turlarining xavfsizlik darajasi¹ (1-5 shkala bo'yicha)

Yillar	Temir yo'l	Avtomobil	Quvur transporti	Havo transporti
2018	4.5	3	5	2
2019	4.5	3	5	2
2020	4.6	3.2	5	2.2
2021	4.6	3.5	5	2.3
2022	4.7	3.7	5	2.5
2023	4.7	4	5	2.7

Besh balli shkala bo'yicha xavfsizlik darajasini baholash, yuklarning yo'qolishi yoki shikastlanish xavfi, avariylar soni, texnik ta'minot, infratuzilma, ijtimoiy va iqtisodiy omillar hamda statistik ma'lumotlar va hisobotlar asosida aniqlandi.

2018-2023-yillar davomida turli transport turlarining xavfsizlik darajasi bo'yicha ko'rsatkichlari 1-5 balli shkalada baholangan bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar har bir transport turining xavfsizlikdagi o'rnini aniqlab beradi. 5 ball eng xavfsiz transport turini, 1 ball esa eng xavfli transport turini bildiradi. Ushbu davr mobaynida xavfsizlik darajasi turli omillar ta'sirida o'ziga xos rivojlanish dinamikasiga ega bo'lgan.

Temir yo'l transporti xavfsizlik darajasi bo'yicha yillar davomida barqaror o'sish sur'atiga ega. 2018 va 2019-yillarda temir yo'l transporti xavfsizlikda 4.5 ball bilan baholangan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 4.6 ballga, 2023-yilga kelib esa 4.7 ballgacha oshgan. Bu o'sish ko'rsatkichi temir yo'l transportining xavfsizlikka alohida e'tibor qaratganini, xavfsizlik chora-tadbirlarini kuchaytirganini ko'rsatadi. Avtomobil transporti xavfsizlik darajasi bo'yicha o'rtacha baholangan, lekin 2018-2023-yillarda barqaror yaxshilanish kuzatilgan. 2018-yilda 3 balldan boshlangan xavfsizlik ko'rsatkichi, yildan-yilga yaxshilanib, 2023-yilda 4 ballga yetgan.

Bugungi kunda yuk tashish sohasida temir yo'l transporti raqobatbardoshligini oshirish va uning samaradorligini ta'minlash xalqaro transport bozorida asosiy masalalardan hisoblanadi, shu nuqtai nazardan olti yo'nalishdan iborat yondashuv taklif etildi (5-jadval).

¹ Mavjud ma'lumotlar va so'rovnomalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**Yuk tashish sohasida temir yo‘l transporti raqobatbardoshligini oshirish
yo‘nalishlari¹**

№	Yo‘nalishlar	Mazmun-mohiyati
1.	Iqtisodiy samaradorlikni oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va transport jarayonlarini avtomatizatsiya qilish yuk tashish sohasida katta samara beradi. Masalan, blokcheyn texnologiyasi orqali yuk tashish jarayonining shaffofligini oshirish, kontraktlar va hisob-kitoblarni avtomatlashtirish orqali transport operatorlari va mijozlar o‘rtasidagi ishonchli munosabatlarni kuchaytirish imkoniyatini ko‘rib chiqish mumkin. Bu borada ilmiy yondashuv yuk tashish operatsiyalarining raqamli iqtisodiyot sharoitida samaradorligini baholash bo‘yicha tahlil qilish bo‘lishi mumkin.
2.	Logistika infratuzilmasini yaxshilash va transport yo‘llarining optimallashtirilishi	Samarali va raqobatbardosh transport tizimini shakllantirish uchun logistika infratuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, intermodal tashish (platformada birlashtirilgan temir yo‘l va boshqa transport vositalari), temir yo‘l stansiyalari va terminallarning modernizatsiyasi hamda xalqaro transport yo‘laklariga ulanish imkoniyatlarini kengaytirish raqobatbardoshlikni oshiradi. Ilmiy yondashuv sifatida, mazkur infratuzilmaning samaradorligini tahlil qilish va uni takomillashtirishga bo‘lgan iqtisodiy ta’sirni baholash mumkin.
3.	Tarif siyosatini takomillashtirish	Raqobatbardoshlikni oshirishda samarali tarif siyosatining roli katta. Tariflarni shakllantirishda dinamik va bozor talablariga moslashuvchan yondashuv orqali transport xizmatlari narxini optimallashtirish mumkin. Bu yerda ilmiy yondashuv sifatida xalqaro tajribani tahlil qilish va transport sohasida bozorni narxlash siyosatining tahlilini o‘tkazish mumkin. Tariflarda moslashuvchan modellar va o‘zgaruvchan tarif sxemalarini ishlab chiqish orqali talabni qoniqtirish yuk tashish samaradorligini oshiradi.
4.	Ekologik va barqaror transport tizimini joriy etish	Raqobatbardoshlikni oshirishning yana bir mexanizmi barqaror transport tizimini joriy etish bilan bog‘liq. Temir yo‘l transporti boshqa transport turlariga qaraganda kamroq uglerod chiqarishga ega bo‘lib, bu uni ekologik jihatdan barqaror qiladi. Ilmiy tadqiqotda ekologik samaradorlik modellari orqali temir yo‘l transportining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llarini tahlil qilish mumkin.
5.	Xalqaro integratsiya va transport yo‘nalishlarini kengaytirish	Temir yo‘l transportining xalqaro integratsiyadagi o‘rnini kuchaytirish orqali ham raqobatbardoshlik oshishi mumkin. Yuk tashish hajmining ko‘payishi va transport tizimlarining integratsiyalashgan tarmoqlar orqali tezkor va samarali yuk tashishga erishish mumkin. Bunda ilmiy tahlil orqali xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va transport yo‘nalishlarini kengaytirishning iqtisodiy samaradorligini baholash mumkin.
6.	Innovatsiyalarni joriy etish va resurslarning samarali boshqaruvi	Innovatsiyalar orqali yuk tashish jarayonlarida energiya sarfini kamaytirish, yo‘lovchi xizmatlarining avtomatizatsiya qilinishi, shuningdek, temir yo‘l transportida inson resurslarini samarali boshqarish raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillaridan biri bo‘lishi mumkin. Ilmiy yondashuv sifatida innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi va ularning iqtisodiy samaradorlikka bo‘lgan ta’sirini o‘rganish mumkin.

¹ O‘rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi yo‘nalishlar innovatsion yechimlarni joriy qilish natijasida iqtisodiy samaradorlikning har yo‘nalishi bo‘yicha alohida ko‘rsatilgan. Energiya va uglerod chiqindilarining kamayishi, yuk tashish hajmi, daromad va xalqaro yuk tashish hajmining oshishi kompaniyaning raqobatbardoshligini kuchaytirib, iqtisodiy barqarorligini ta‘minlaydi. Har bir ko‘rsatkichda erishilgan natijalar kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga mos keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilarni hisobga olib, temir yo‘l transporti raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Tarif siyosati va moliyaviy barqarorlikni takomillashtirish

tariflarni belgilashning yangi prinsiplarini joriy etish va ularni bozor mexanizmi asosida shakllantirish, tarif koeffitsientlarini kamaytirish va transport xizmatlarining samaradorligini oshirish;

transport sohasini har tomonlama moliyaviy ta‘minlash turlarini qisqartirish orqali byudjet yukini optimallashtirish;

hajmli yuk tashishlar uchun maxsus tariflar ishlab chiqish va konteynerli yuk tashishlarni rag‘batlantirish.

2. Temir yo‘l transportida raqobat muhitini shakllantirish

o‘z lokomotiv va vagonlariga ega bo‘lgan xususiy transport kompaniyalarini tashkil etish uchun qulay sharoitlar yaratish;

temir yo‘l orqali yuk tashish tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va xususiy logistika operatorlarini jalb qilish;

konteynerli yuk tashishlarni 25-30%ga oshirish orqali transport xarajatlarini 10%ga kamaytirish.

3. Multimodal va logistika infratuzilmasini rivojlantirish

mintaqalarda multimodal transport-logistika markazlari tarmog‘ini kengaytirish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish;

intermodal va multimodal yuk tashishlarning huquqiy va normativ bazasini takomillashtirish, texnik va texnologik reglamentlarni ishlab chiqish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yagona integratsiyalashgan transport boshqaruv tizimini tashkil etish;

bojxona logistika markazlarining milliy tarmog‘ini shakllantirish va ularni 3PL va 4PL darajasiga chiqarish.

4. Temir yo‘l transportining barqaror rivojlanishini ta‘minlash

raqamli texnologiyalarni joriy etish va avtomatlashtirish jarayonlarini kengaytirish orqali operatsion samaradorlikni oshirish;

innovatsion transport yechimlarini tatbiq etish va strategik diversifikatsiya orqali xizmatlar sifatini yaxshilash;

jahon transport tizimiga integratsiyalashuv orqali xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va tranzit salohiyatini rivojlantirish.

Taklif etilayotgan yo‘nalishlar temir yo‘l transportining barqaror rivojlanishiga, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga va uning raqobatbardoshligini oshirishga olib

keladi. Ushbu yoʻnalishlarni amalga oshirish orqali transport xarajatlarini qisqartirish, bozor munosabatlarini rivojlantirish va temir yoʻl transporti tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI

7. <https://data.worldbank.org/indicator/is.air.good.mt.k1>
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 февралдаги «2022-2026 йилларга бўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ–60-сонли фармони. // www.lex.uz.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24 январь 2020 йил.
10. Халтурин, Р. Развитие транспортной инфраструктуры: проблемы и возможности / Р. Халтурин // Вестник Института экономики Российской академии наук — №6 — 2012. — С. 21-26.
11. Задворный, Ю. В. Формирование интегрированной транспортной инфраструктуры в регионе / Ю. В. Задворный // дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. — М., 2005.- с. 152
12. Venables, A. J. (2020). Evaluating Urban Transport Improvements: Cost-Benefit Analysis in the Presence of Agglomeration and Income Taxation. *Journal of Transport Economics and Policy*, 41:173–188 p.
13. Рахимов Х.Ш. Мамлакат транспорт инфратузилмаси фаолиятини самарадорлигини ошириш. Иқт. фан. фал. ... дис. Автореф., Тошкент 2021.
14. Fayzullayev J.S. Improvement of Economic Efficiency of Development of Railway // *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR)* ISSN: 2249 – 0892 Vol9 Issue–2, Dec -2019. http://www.ajtmr.com/papers/Vol9Issue2/Vol9Iss2_P9.pdf
15. Fayzullayev, J.S. (2021) "Economic-mathematical model of evaluating the efficiency of the transport system," *Economics and Innovative Technologies: Vol. 2021: No. 1, Article 1.* <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2021/iss1/1>
16. <https://review.uz/oz/post/infografika-uzbekistan-v-indekse-effektivnosti-logistiki-2016-2018-gg>.
17. Зоҳидов А.А. Марказий осийё транспорт тизимини самарали бошқариш механизмини такомиллаштириш. Иқт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2018.
18. Frederick Starr S., Filat Yildiz, Martina reiser etc. The New Silk roads: Transport and trade in Greater Central Asia. Monograph Central AsiaCaucasus institute & Silk Road Studies Programm, Washington, D.C.: Johns Hopkins University-SAIS, 2019. – 514 p.